



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 231-237 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li

"Audit" kafedrasi dotsenti, PhD
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ochilovfarhod094@gmail.com

Sobirova Kamola Shuxratjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
4-bosqich "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi
shuxratovna2003@gmail.com

Annotatsiya. Yashil buxgalteriya tushunchasi hozirgi kunda butun dunyoda dolzarb hamda muhim kategoriya sifatida ko'zga tashlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ham aynan yashil buxgalteriya hisobini tashkil qilish va yuritishga qaratilgan islohotlarning dastlabki qadamlari qo'yilmoqda. Bevosita faoliyati ekologiyaga bog'liq tashkilotlarning og'riqli nuqtalaridan bo'lib kelayotgan muammolarga yechimlar izlab topish maqsadida yashil buxgalteriya hisobini tashkil qilish masalalari ilgari surilmoqda. O'zbekiston Respublikasida yashil buxgalteriya hisobini tashkil qilishning afzalliklari, atrof-muhitga oid xarajatlar hisobi va global iqtisodiyotga hissasi haqida ma'lumot beradi. Respublikamizning hozirgi kunda kuzatilayotgan ekologik muammolari, jumladan, havoning zaharlanishi, suv tanqisligi va atrof-muhutning ifloslanishi masalalarini bartaraf etishda investisiyalarni jalb qilish va xalqaro raqobatdoshlikni oshirishga yashil buxgalteriya hisobi imkoniyatlarni yaratishga yordam beradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida yashil buxgalteriya hisobini yuritish jarayonlarida kutilmagan muammolar yuzaga kelishi mumkin, buning asosiy sababi shundaki, mazkur hisobni yuritishda milliy standartlar ishlab chiqilmagani va tegishli ilmiy tadqiqot ishlarining yetarli emasligidir.

Mazkur maqolada yuqorida keltirib o'tilgan yashil buxgalteriya hisobini tashkil etishdagi muammolar hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu maqola, adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda ilmiy-amaliy tadqiqlardagi olimlar fikrlarni o'rghanish natijasi bo'yicha turli amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Yashil buxgalteriya hisobi, atrof-muhit, moliyaviy hisobot, qishloq xo'jaligi, sanoat, ishlab chiqarish jarayoni, baholangan majburiyatlar.

Abstract. The concept of green accounting is currently emerging as a relevant and significant category worldwide. In particular, the initial steps towards organizing and maintaining green accounting have been taken in the Republic of Uzbekistan. In order to address the painful issues that organizations whose activities are related to ecology face, the establishment of green accounting is being promoted as a solution. This article provides information about the advantages of organizing green accounting in Uzbekistan,

the accounting of environmental costs, and its contribution to the global economy. It highlights how green accounting can help attract investments and enhance international competitiveness in addressing current ecological problems in our country, such as air pollution, water scarcity, and environmental contamination. Additionally, unexpected challenges may arise in the implementation of green accounting processes in Uzbekistan; this is primarily due to the lack of developed national standards and insufficient scientific research on this topic.

This article outlines the problems associated with establishing green accounting mentioned above and proposes recommendations aimed at overcoming them. Based on a review of literature, scientific articles, and scholars' opinions from research studies, various practical recommendations are provided.

Key words. Green accounting, environment, financial reporting, agriculture, industry, production process, provisions.

KIRISH. So'ngi yillarda global ekologik muammolar, xususan, iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi, resurslarning tugashi kabi xavf-xatarlar tobora ortib bormoqda. Shu sababli, ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotni barqaror va ekologik jihatdan do'stona rivojlantirish zaruriyatini anglab yetmoqda. O'zbekistonda ham bu masalalar juda muhim bo'lib, "yashil iqtisodiyot" kontseptsiyasi asosida rivojlanish strategiyalari ishlab chiqilmoqda. Ushbu jarayonning muhim komponentlaridan biri "yashil buxgalteriya hisobi" (YBH) hisoblanadi. O'zbekistonda uni tatbiq qilishning asosiy omillari bilan tanishilmoqda. "Iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta'sirini o'lchash va hisobot berish usuli hisoblangan "yashil buxgalteriya" ga (green accounting) o'tish [1]", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida bosqichma bosqich amalga oshirish loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Birinchi, yashil buxgalteriya hisobi tushinchasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu korxonalar va tashkilotlarning faoliyatida ekologik jihatlarni inobatga olgan holda moliyaviy hisobotlarni yuritish tizimi. Bu tizim korxonalarning ekologik ta'sirini baholash, tabiiy resurslardan foydalanishni kuzatib borish, chiqindilarni kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq xarajatlarni tahlil qilish va hisobot berish maqsadini o'z ichiga oladi. YBH orqali tashkilotlar o'z faoliyatlarini ekologik standartlarga moslashtiradi va ekologik javobgarlikni oshiradi. Ushbu muqaddima O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslar va ekotizim xizmatlarini iqtisodiy nuqtai nazardan hisoblash va baholashga qaratilgan yashil buxgalteriya hisobini yoritib beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Markaziy Osiyoning eng ko'p aholisi bo'lgan O'zbekiston Respublikasida oxirigi besh yil davomida oldingi yillarga nisbatan yuqori darajada aholi sonining o'sishi kuzatildi. Tabiiy resusrlar cheklanganligi sababli o'zo'zidan jadal sur'atlarda aholi ehtiyojlari ko'payishi yuzaga keladi. O'zbekiston aholisining ko'payishi ko'rsatkichlari o'xshash davlatlar qatoriga Qozog'iston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qиргизистон hamda Afg'oniston davlatlari kiradi. Bu mamlakatlarning aksariyati iqtisodiy rivojlanish, urbanizatsiya va ijtimoiy muammolar bilan bog'liq umumiyl muammolarni boshdan kechirmoqda. Bu holatlar shuni taqazo qiladiki, yashil buxgalteriya hisobi tizimlarini samarali joriy etish va qo'llab quvvatlash uchun

siyosatchilar, buxgalterlar va ekologiya sohasiga tegishli olimlar o'rtasida iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va uzoq muddatli strategiyalarni joriy qilish zarurligi. Aholi ko'payishi bilan birga, suv, yer va boshqa tabiiy resurslarga talab oshadi. Bu esa suv ta'minoti va qishloq xo'jaligi uchun yerlar yetishmasligini keltirib chiqaradi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yuqori intensivlikda olib boriladi, bu tuproqning unumdorligini pasayishiga olib keladi. Aholi soning oshishi ekin maydonlarini kengaytirish zaruratini tug'diradi va natijada tabiiy muhitga zarar yetkazishi mumkin. Shu bilan birga shahar joylarda odamlar ko'payishiga yuzaga keladi, Yangi qurilishlar va infratuzilma rivojlanishini talab qiladi va bunda tabiiy muhit buziladi. Ko'proq aholi, ko'proq chiqindilarni anglatadi. Bu chiqindilarni boshqarish tizimlarini yuklaydi va atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo'ladi. Qishloq xo'jaligi va sanoat faoliyatini natijasida chiqindilar va issiqxona gazlari chiqarilishi iqlim o'zgarishiga sabab bo'lib kelmoqda. Buning yaqqol timsoli sifatida Toshkent shahar havosining ifloslanishini ko'rishimiz mumkin.

Biznes modellarini rivojlantirish tarafdori bo'lgan taniqli olimlardan biri Robert G. Eccles, "kompaniyalar faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga e'tibor berib qolmay, balki atrof-muhit va ijtimoiy omillarni ham hisobga olishlari kerak" deb ta'kidlaydi. Bu esa ularni uzoq muddatda barqaror rivojlanishga olib keladi. Yashil buxgalteriya orqali kompaniyalar tabiiy resurslardan foydalanganliklarini, ekologik zararlarni va barqarorlikka qaratilgan investitsiyalarini ochiq-oydin ifodalashlari mumkin. Qaramaqarshi tomonidan ushbu olimning fikricha, "**greenwashing**" (yashil niqob ostida aldash) degan holatni kritik masala sifatida ko'radi [2].

Buning asosiy sababi, ESG hisobotlari hozircha global miqyosda bir xil standartga ega emas. Bu esa kompaniyalar o'rtasida hisobotlar shakllanishida farqlarni yuzaga keltiradi va ma'lumotlarni solishtirishni qiyinlashtiradi. Ushbu noto'g'ri amaliyotlar sababli ESG hisobotlari investorlarga va jamoatchilikka to'g'ri axborot bermasligi mumkin.

Mashhur atrof-muhit iqtisodchisi Paul Ekins ham yashil buxgalteriyaga katta e'tibor qaratadi. U o'z tadqiqotlarida aholi sonining o'sishi yashil buxgalteriya bilan bog'liq salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini ta'kidlaydi, chunki bu holat tabiiy resurslar ustidan bosimni oshiradi va ekologik barqarorlikka putur yetkazadi. Shuning uchun, yashil buxgalteriya tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun aholi soni o'sishiga qarshi muvozanatlari strategiyalar ishlab chiqilishi kerak deb hisoblaydi. Ko'p sonli aholiga zarur bo'lgan oziq-ovqat, suv, energiya va boshqa resurslarni ta'minlash uchun ko'proq tabiiy resurslar ishlataladi, bu esa tabiiy kapitalning kamayishiga olib keladi [3].

Robert Repettoning fikricha, yashil buxgalteriya tabiiy resurslarning iqtisodiy qiymatini aniqroq aks ettirishi orqali ularning boshqaruvini yaxshilaydi. Bu tizim orqali aholi soni o'sishi tufayli ortadigan ekologik va iqtisodiy bosimlar yaxshiroq boshqarilishi mumkin. Masalan, o'rmonlar, suv havzalari va boshqa tabiiy resurslarning iqtisodiy qiymatini hisoblash orqali ularning saqlanishi va barqaror foydalanimishi ta'minlanishi kerak [4].

Yuqorida keltirilgan xorijiy iqtisodchi olimlarning fikrlaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz tadbirkorlik subyektlari amaliyotida yashil buxgalteriya hisobini tashkil

qilish va takomillashtirishga oid ilmiy izlanishlar hajmini yanada ko'paytirish maqsadga muvofiq.

TAHLIL VA NATIJALAR. Yuqoridagi olimlarning fikrlari bir necha yillar oldin yoritilgan bo'lishiga qaramasdan hozirgi kundagi O'zbekiston iqtisodiy atmasferasiga mos kelmoqda. Bir qator rivojlangan davlatlar bu tendensiyalarni bosib o'tgan bo'lsa, boshqa davlatlarda hali hamon davom etib kelmoqda. Bunga butun dunyoni diqqatini tortayotgan Xitoy va Yaponiya davlatlarini misol qilishimiz mumkin. Aholi zichligi bo'yicha boshqa davlatlarga qaraganda yetakchi o'rnlarni egallaydi. Xitoy hukumatining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyalari doirasida yashil buxgalteriya joriy etilgan. Bu strategiyalar tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash, ekologik zararni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. Davlat tashkilotlari va kompaniyalar uchun yashil hisobotlarni tayyorlash va moliyaviy hisobotlarida ekologik ko'rsatkichlarni kiritish majburiyati belgilangan. Yashil buxgalteriya tizimlari tabiiy resurslar va ekologik kapitalning qiymatini hisoblashga qaratilgan. Bu tizimlar orqali o'rmonlar, suv resurslari, havoning sifati va boshqa tabiiy resurslarning iqtisodiy qiymati aniqlanadi. Ekologik zararlarni moliyaviy hisobotlarga kiritish orqali iqtisodiy faoliyatlarning salbiy ta'sirini hisobga olish imkoniyati yaratiladi. Yashil buxgalteriya tizimlarini rivojlantirishda axborot texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. Ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va hisobotlarni tayyorlashda zamonaviy texnologiyalar qo'llaniladi. Yashil buxgalteriya jarayonlarida energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan innovatsiyalar keng qo'llaniladi.

Xitoyda yashil buxgalteriya yuritishda xalqaro standartlar, masalan, "Global Reporting Initiative" (GRI) va "International Integrated Reporting Council" (IIRC) tamoyillari qabul qilingan. Xitoy hukumati tomonidan ishlab chiqilgan milliy yashil buxgalteriya standartlari va qoidalari mavjud bo'lib, ular iqtisodiy faoliyatning ekologik ta'sirini hisobga olishga qaratilgan.

Yaponiya davlatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Yaponiyada ekologik zararlarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha qoidalar va qonunlar mavjud. Bular yashil buxgalteriyaning asosiy asosi hisoblanadi. Yaponiyada yashil buxgalteriya va ekologik masalalar bo'yicha ta'lim dasturlari va seminarlar tashkil etiladi. Bu, jamiyatning ekologik masalalarga xabardorligini oshirishga yordam beradi. Yaponiyadagi ko'plab kompaniyalar o'z faoliyatlarida yashil buxgalteriya tamoyillarini qabul qilmoqda. Bu ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi va barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. Kompaniyalar o'z faoliyatlarida ekologik ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan hisobotlarni tayyorlashni majburiyat qilib olgan. Yaponiyada xalqaro yashil buxgalteriya standartlari ham qo'llaniladi, masalan, Global Reporting Initiative (GRI) va Integrated Reporting Framework (IR). Quyidagi jadvalda 3ta davlarda aholi zichligi ko'rsatib o'tilgan (1-jadval).

1-jadval

2024 yilda mamlakatlarning aholi zichligi¹

Mamlakat nomi	Maydoni	Aholisi	Aholi zichligi (1km ²)

¹ Muallif ishlanmasi

Yaponiya	377,8 ming km ²	127million	338 kishi
Xitoy	9,6 mln km ²	1milliard 425 million	148 kishi
O'zbekiston	448,98 ming km ²	36,9 million	82 kishi

O'zbekistonda 2023 yilgi demografik prognozlarga ko'ra, O'zbekiston aholisining soni 2028 yilga kelib 40 milliondan oshishi va 2050 yilga kelib 50 milliondan yuqori bo'lishi kutilmoxda [5]. Bu ma'lumotlarga ko'ra taxminan o'rtacha o'sish sur'ati yiliga 800 000 – 1 000 000 ta aholini ko'payishini ko'rsatmoqda. O'zbekiston ham 60 - 65 yildan keyin 100 mlndan ortiq aholini tashkil qilishi mumkin. Bu degani hozirgi Yaponiya aholisi zichligi korsatgichlariga o'xhash ko'rsatgichga yaqinlashamiz. O'zbekistonda yashil buxgalteriya hisobi milliy standartlarini tuzishda biz Xitoy va Yaponiya davlatlarining yashil buxgalteriya hisobi milliy standartlaridan andoza olishimiz va O'zbekiston qonunchiligiga moslashtirib qayta takomillashtirishimiz kerak.

Iqtisodiyot va moliya vazirligida Jahon banki vakillari bilan Toshkent shahrida havo sifatini baholash va yaxshilash masalasini muhokama qilish yuzasidan bo'lib o'tgan uchrashuvda Toshkent shahrining havosi ifloslanishi sababli 3 000 dan ortiq kishining bevaqt o'limiga olib kelayotgani haqida Jahon banki tomonidan shakllangan hisobotda ma'lum qilingan. Ushbu hisobotda, bu holat aholi salomatligi bilan birgalikda iqtisodiyotga ham sezilarni ziyon keltiradi. Aynan, Toshkent shahar aholisining farovonligi uchun yiliga 488,4 mln dollar zarar keltirishi aytilgan. Jahon banki hisobotida havo ifloslanishini yuqori darajalari qish faslidga to'g'ri kelmoqda. Shahar aholisining 83 % havoning yuqori darajada ifloslangan hududlarida istiqomat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida havoning sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish ishariga 690 mln €ga yaqin mablag'ni talab etilishi hisobotda ta'kidlagan. Baholashlarga ko'ra, O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 0,7 foiziga teng zarar keltirishi mumkin.

Poytaxtimiz aholisi allaqachon toza havoni sotib olishni boshlab yuborgani hech kimga sir emas. Bu dam olish maskanlarida narx-navoning keskin ko'tarilishiga sabab bo'lib kelmoqda. Albatta, shu vaziyatlarni bartaraf etish va ekotizimni yaratishimiz uchun O'zbekistonda yashil buxgalteriya milliy standartlarini ishlab chiqib va qisqa fursatda joriy qilishimizni talab qiladi. Yashil buxgalteriya hisobi ikki asosiy yo'nalishda rivojlanadi.

Atrof-muhitga ta'sirni moliyaviy baholash: Bu yo'nalishda korxonalarining atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirlari, masalan, chiqindilar, atmosferaga chiqarilgan zararli moddalar va boshqa ekologik zararlar moliyaviy qiymatga ega bo'lib, buxgalteriya hisobotlariga kiritiladi.

Resurslardan foydalanishni tahlil qilish: Bu yo'nalishda korxonalar tabiiy resurslardan qanchalik samarali foydalanayotganini tahlil qiladi va bu resurslarning iqtisodiy jihatdan qayta tiklanishini hisoblab chiqadi.

Yashil buxgalteriya hisobi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash muhimdir. Bu yo'nalishda O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari va malaka oshirish markazlari orqali maxsus kurslar va o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarur.

Yashil buxgalteriya hisobi atrof-muhitga oid xarajatlar va imtiyozlarni o'z ichiga olgan holda tadbirkorlik yoki iqtisodiy faoliyatining to'liqroq ko'rinishini ta'minlashga

qaratilgan. Yashil buxgalteriya hisobining ayrim o'ziga xos xususiyatlari quyidagi rasmda yoritib berilgan (1-rasm).



1-rasm. Yashil buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari²

Yuqorida keltirilgan rasmdan ko'rishimiz mumkinku, yashil buxgalteriya hisobi iqtisodiy va atrof-muhit salomatligi o'rtasidagi muhim bog'liqlikni tan olish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqaruviga yanada barqaror yondashuvni ta'minlab beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar amaliyotida yashil buxgalteriya hisobini tashkil qilishga qaratilgan chora-tadbirlar qamrovini yanada kengaytirish natijasida moliyaviy hisobotlarning ishonchlilik darajasini yanada oshirish imoniylatlari paydo bo'ladi.

XULOSA.

Mazkur ilmiy maqolada keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Yashil buxgalteriya hisobini yuritish davomida atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni hamda ularni qayta tiklash bilan bog'liq xarajatlarni muntazam kuzatib borish, masalan, ifloslanish, resurslarning kamayishi va chiqindilarni boshqarish kabilarni inobatga olish maqsadga muvofiq. Shuningdek, yashil buxgalteriya hisobida turli atrof-muhit bilan bog'liq jarimalar, tozalash xarajatlari yoki atrof-muhitni muhofaza qoidalari bilan bog'liq xarajatlar kabi kelgusidagi potentsial baholangan majburiyatlarni moliyaviy hisobotlarda haqqoniy hamda shaffof yoritib berishga xizmat qiladi.

2. Yashil buxgalteriya hisobi qayta ishslash, ekologik toza mahsulotlarni sotish va yashil texnologiya kabi ekologik jihatdan foydali faoliyatdan olingen daromadlar hisobini ham yuritishni taqozo qiladi. Shu bilan birga yashil buxgalteriya hisobi mamlakatimizda

² Muallif ishlanmasi

faoliyat yuritayotgan turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarga berilgan subsidiyalarning, soliq imtiyozlarning va ekologik amaliyotlar uchun kreditlarning buxgalteriya hisobini oqilona yuritishga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi "Yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha milliy strategiyasi" (2022).
2. Paul Ekins, "Policies for low-carbon 'green' growth", Environmental Scientist (2012), 7 29-35.
3. Robert G. Eccles, Ioannis Ioannou, and George Serafeim "The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance", Management Science (2014), 23, 2835-2857
4. Robert Repetto, William Magrath, Michael Wells, Christine Beer, Fabrizio Rossini "Wasting Assets: Natural Resources in the National Income Accounts" (1989).
5. Xalilov Sherzod Axmatovich, Green Accounting In Uzbekistan: Necessity, Challenges, And Opportunities, Scientific Journal of "International Finance & Accounting" (2024)
6. <https://uzbekistan.unfpa.org>.
7. <https://www.worldbank.org>.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

